

## Kitob – inson ma'naviyatining ko'zgusi

Joriy yilning 4 oktyabr sanasida "Yer resurslarini boshqarish" fakultetining barcha kurs talabalari guruh murabbiylari bilan birgalikda "TASHKENT BOOK FEST - 2019» — I Toshkent xalqaro kitob ko'rgazma-yarmarkasi ishtirok etishdi. U yerda talabalar kitob olamiga sayohat uyushtirib, bir olam quvonchga to'lib qaytishdi. Darhaqiqat bugun jamiyatimizda kitobxonlikni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini takomillashtirish borasida har doimgidan bir necha barobar ko'p miqdorda samarali ishlar amalga oshirilmoqda, tashviqot-targ'ibot ishlari olib borilmoqda. O'zbekistonda ilk marotaba o'tkazilayotgan ushbu yirik madaniy tadbirda turli mamlakatlarda jumladan Buyuk Britaniya, Germaniya, Qozog'iston, Koreya, Qirgiziston, Rossiya, Turkiya davlatlaridan nashriyot va kitob savdosi tashkilotlari vakillari ishtirok etishmoqda. Ushbu ko'rgazmada O'zbekistondagi 30 dan ortiq davlat va xususiy nashriyot hamda kitob savdosi tashkilotlari ham mahsulotlarini namoyish etishdi. Talabalar juda yaxshi taassurotlar bilan qaytishdi.



**YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**